

**DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA'LIMNING  
NOAN'ANAVIY USULLARI**

**Salimova Sevara Xidirbay qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Samarqand davlat chet tillari instituti

Ingliz tili fakulteti 2-bosqich talabasi

+998930514665

sevarasalimova52@gmail.com

**MAQOLA  
MALUMOTI**

**ANNOTATSIYA:**

**MAQOLA TARIXI:**

Received: 23.01.2025

Revised: 24.01.2025

Accepted: 25.01.2025

**KALIT SO'ZLAR:**

*ta'lim, pedagog, dars  
jarayoni, interaktiv  
o'yinlar, KAHOOT,  
Quizlet, Monkeytype,  
demokratik dars usuli.*

Ushbu maqola ta'limning eng asosiy bosqichi hisoblangan dars jarayonini yanada samaraliroq tashkil etishga yordam beradigan noodatiy usullar haqida ma'lumot beradi. Shu bilan birga ta'limning noan'anaviy modelining ustunlik jihatlari aniq ma'lumotlar asosida yoritiladi.

**KIRISH.** Dars-aniq bir maqsadni ko'zlagan holda, ma'lum vaqt davomida aynan bir xil yoshdagi o'quvchi-yoshlar bilan pedagog o'qituvchi rahnamoligida o'tkaziluvchi mashg'ulot turi sanaladi. Dars mashg'ultini olib borish jarayoni bevosita yoki bilvosita o'quvchi va o'qituvchi o'rtaсидаги aloqa orqali vojudga keladi. Dars jarayonlarini an'anaviy va noan'anaviy turlarga ajratish mumkin. An'anaviy dars-ko'p hollarda ta'lim jarayoning birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda. An'anaviy dars metodi-passiv dars berish usuli bo'lib, unda darsning samaradorlik darajasi darsning qay darajada rejalashtirilganiga bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, dars berishning bu usulida ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. An'anaviy dars modelida ko'proq ma'ruza, savol javob, amaliy mashq kabi metodlarga asoslangani tufayli, an'anaviy dars jarayonining samaradorlik darajasi ancha

---

past bo'lib, o'quvchilar ta'lism jarayonining nofaol ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Bundan tashqari, esda saqlab qolish barcha o'quvchilarda bir-xil bo`limganligi uchun, butun sinfning o`zlashtirish darajasi pasayib ketish ehtimoli yuqoriligini aytishimiz mumkin. Ya'ni, ta'limning an'anaviy metodida dars mashg'ulotlariga va bilish jarayoniga o'quvchilarni qiziqtiruvchi har xil metodlarni, xotirani mustahkamlovchi o`yinli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlaridan foydalanimasligi mazkur oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Noan'anaviy bo'lgan dars noma'lum tuzilishga ega bo'lgan improvizatsiyaga boy bo'lgan o'quv mashg'uloti hisoblanadi. Pedagogik adabiyotlarning tahlili bir necha o'nlab turdag'i nostandard darslarni bir-biridan ajratish imkonini berdi, ammo ular bir maqsadda birlashtirilgan, ya'ni asosiy qonunning bajarilishiga olib keladigan yangi usullar, shakllar, texnikalar va o'qitish vositalarini ishlab chiqishdan iborat bo`ldi.

O'qitishning **noan'anaviy modellarini** shartli ravishda 3 guruhg'a ajratish mumkin.

Bu modellar asosan o'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'lib, ularni boshqacha qilib markazda o'quvchi turgan ta'lism modellari deb ham atashadi.

- **Modellashtirish**—real hayotda va jamiyatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlarnining ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko'rinishini (modelini) sinfonada yaratib, ularda o'quvchilarning har birining qatnashishi va faoliyati evaziga ta'lism olishini ko`zda tutuvchi metod.

- **Hamkorlikda o'rganish modeli**—o'quvchilarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta'lism olishini ko`zda tutadigan metod.

- **O'rganishning tadqiqot modeli**—o'quvchilarni muayyan muammoning yechimini topishga yo`naltirilgan, mustaqil tadqiqot olib borishini ko`zda tutuvchi metod.

*Noan'anaviy (ta'lism jarayoni markazida o'quvchi bo'lgan) o'qitish metodining ustun jihatlari:*

- O'quvchining dars jarayonini o'zlashtirish darajasining ortishi.
- Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- Motivatsiyaning yuqori darajada bo`lishi.
- O'quvchilarning o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabatining shakllanishi.
- Muammoni yechish ko'nikmasining shakllanishi.

Shuningdek, hozirgi davr talabidan kelib chiqib noan'naviy dars metodiga quyidagi mashg'ulotlarni va usullarni jalb etish mumkin:

- Interaktiv o'yinlar. KAHOOT, Quizlet, Monkeytype kabi interaktiv o'yinlar orqali o'quvchining ham darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, ham o'qituvchi zerikarli metodlardan chekingan holda o'quvchining o'zlashtirish darajasini aniqlab oladi.
- Demokratik dars usuli. Bu usul orqali o'quvchilar va o'qituvchi o'rta sidagi aloqa ta'minlanadi va o'quvchi o'z fikrini erkin bayon eta oladi.
- Ochiq osmon ostidagi dars mashg'uloti. Bu turdag'i mashg'ulot ham o'quvchi salomatligi uchun foydali va shu bilan birga, o'quvchida fan haqid yaxshi taassurot qoldiradi. Bundan tashqari, ochiq osmon ostidagi jismoniy va aqliy o'yinlar ham ayni maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qiladigan bo'lsam, bugungi kun talabiga ko'ra an'anaviy dars modelidan qochib turli xil noodatiy ta'lif usullarini qo'llash orqali o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini va o'zlashtirish darajasini oshirish samaraliroq sanaladi. O'quvchilar ma'naviyatini shakalantirishda pedagogik omillarni ham ko'plab topsa bo'ladi. Ular ta'lif mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga mustahkam didaktik asos bo'la oladi va ularni ta'lif mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o'ziga xos innovatsion jarayon bo'lib, bunda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. -Toshkent: Oliy pedagogika instituti, 2003
- 2.Djamilova N.N. va Xasanboeva O. Pedagogika fanini o'qitish metodikasi.T.: "O'zbekiston". 2008 y. Metodik qo'llanma.
3. Minamatov, Y. E. O. G. L., & Yusupova, N. M. (2022). SMART TEKNOLOGIYALARDA TA'LIM JARAYONI. Central Asian Academic Journal of Scientific Research, 2(6), 441-445.
4. Okhunov, M., & Minamatov, Y. (2021). Application of Innovative Projects in Information Systems. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 11, 167-168.
5. Norbutaev, M. A. . (2022). Create Computer Learning Games Taking Into Account the Psychophysiological Characteristics of the User. International Journal of Development and Public Policy, 2(6), 113–116.
6. Минаматов, Ю. (2021). УМНЫЕ УСТРОЙСТВА И ПРОЦЕССЫ В ИХ ПРАКТИЧЕСКОЙ ЭКСПЛУАТАЦИИ. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 875-879.